

BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING KASBIY-METODIK TAYYORGARLIGIDA AXBOROT KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARINING O'RNI

Хайров Расим Золимхон о'ғ'ли

Pedagogika fanlari falsafa doktori, dotsent Guliston davlat pedagogika instituti

Anotatsiya: maqolada bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligini axborot kommunikatsion texnologiyalari vositasida rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari mazmun mohiyati ochib berilgan. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining o'z kasbiy faoliyatini samarali amalga oshirishda kompyuter texnologiyalari dastur va ilovalari yoritilgan. Shuningdek, talabalarning kasbiy-metodik tayyorgarligi jarayonida pedagogik amaliyot davrida umumiy o'rta ta'lim maktablari tasviriy san'at darslarini axborot kommunikativ texnologiyalardan foydalanib kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy-metodik tayyorgarlik, axborot kommunikativ texnologiyalar, dasturlar, grafik redaktorlar, learning management system, ijtimoiy tarmoqlar, bulutli texnologiyalar, masofaviy ta'lim, ommaviy ochiq onlayn kurslar, videodars lavhalar, multimediali prezentatsiyalar, pedagogik amaliyot davri, bilish, ko'nikmalar va malakalar.

РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОФЕССИОНАЛЬНО-МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА

Хайров Расим Золимхон углы

Доктор философии педагогических наук, доцент Гулистанский государственный педагогический институт

Аннотация: в статье раскрывается сущность содержания педагогических условий развития профессионально-методической подготовки будущих учителей изобразительного искусства с использованием информационно-коммуникационных технологий. Рассматриваются компьютерные технологические программы и приложения будущего учителя изобразительного искусства в эффективном осуществлении своей профессиональной деятельности. Также в процессе профессионально-методической подготовки студентов, в период педагогической практики, освещаются вопросы формирования профессиональных навыков на уроках изобразительного искусства общеобразовательных средних школ с использованием информационно-коммуникативных технологий.

Ключевые слова: профессионально-методическая подготовка, информационно-коммуникационные технологии, программы, графические редакторы, система управления обучением, социальные сети, облачные технологии, дистанционное образование, публичные открытые онлайн-курсы, видеоматериалы, мультимедийные презентации, период педагогической практики, знания, умения и квалификация.

THE ROLE OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN THE PROFESSIONAL AND METHODOLOGICAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS OF FINE ARTS

Khayrov Rasim Zalimkhan ugli

Doctor of Philosophy of Pedagogical Sciences, Associate Professor Gulistan State Pedagogical Institute

Abstract: the article reveals the essence of the content of pedagogical conditions for the development of professional and methodological training of future teachers of fine arts using information and communication technologies. Computer technological programs and applications of the future teacher of fine arts in the effective implementation of their professional activities are considered. Also, in the process of professional and methodological training of students, during the period of pedagogical practice, the issues of the formation of professional skills in the lessons of fine arts of secondary schools with the use of information and communication technologies are highlighted.

Keywords: professional and methodological training, information and communication technologies, programs, graphic editors, learning management system, social networks, cloud technologies, distance education, public open online courses, video materials, multimedia presentations, period of pedagogical practice, knowledge, skills and qualifications.

Zamonaviy jamiyatni axborotlashtirish, unga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish

asosida kasbiy-metodik tayyorgarlik tabiatini o'zgarishiga olib keldi. Shu munosabat bilan kasbiy-metodik tayyorgarlikning turli yo'nalishlari bo'yicha mutaxassis tayyorlashga yondashuv o'zgardi.

O'quv jarayonida axborot kommunikativ texnologiyalaridan foydalangan holda bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash zarurati va muammolari V. P. Bepalko, S.I. Makrousov, D.Yu. Altimentova, K.A. Rojko, R.X. Alimov, O.X. Azamatov va boshqalar asarlarida o'z ifodasini topgan.

Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi "Majburiy fanlar" blokida majburiy minimal ta'lim mazmuni axborot bilan ishlash, to'plash, yig'ish va to'plash jarayonlarining umumiy xususiyatlari, dasturiy ta'minot va dasturlash texnologiyalari haqidagi bilimlarni shakllantirishga qaratilgan "Mediasavodxonlik va axborot madaniyati" va tanlov fanlar blokida "Avtomatlashtirilgan grafik dasturlarda loyihalash", "Matematika" kursini o'rganishni nazarda tutadi. Bu va boshqa mutaxassislik kurslari bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy-metodik tayyorlashda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash bo'yicha barcha keyingi ta'lim jarayonini qo'llab-quvvatlaydigan asosiy mezon hisoblanadi. Ushbu kursning asosiy maqsadi talabalarning maktabda olgan axborot texnologiyalari bo'yicha bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish hamda shu asosda kasbiy-metodik tayyorgarlikda informatikaning metod va vositalaridan amaliy foydalanish ko'nikmalarini propedevtik jihatdan takomillashtirishdan iborat.

R.X. Alimov, O.X. Azamatov, U.T. Xayitmatovlar [2] o'zlarining "Ta'limda axborot texnologiyalari" o'quv qo'llanmasida tasviriy san'atni kompyuter orqali o'rganish jarayonida talabalar ham rassom, ham tomoshabin sifatida ishtirok etishadilar, deb ta'kidlagan.

Ma'lumki, o'qitishning eng samarali usuli bu materialni ko'rgazmali qurollar orqali ko'rsatish va bir vaqtning o'zida tushuntirishdir [13]. Minnesota shtat universiteti Uorton maktabi (Wharton School) amaliy tadqiqotlar markaziga fiziolog olimlarning fikriga ko'ra [9; 20-b.] odam bir vaqtning o'zida eshitgan narsasining 20 foizini, ko'rgan narsasining 30 foizini va ko'rgan va eshitgan narsasining 50 foizdan ortig'ini eslab qoladi. Axborot kommunikatsion texnologiyalari va multimedia dasturlari orqali katta hajmdagi illyustrativ va didaktik materiallarni jalb qilish imkonini beradi va o'quv jarayonini samaraliroq qiladi. Muayyan materialni o'rganish uchun zarur bo'lgan vaqtni tejash o'rtacha 30% ni tashkil qiladi va olingan bilimlar xotirada ancha uzoqroq saqlanadi. [6; 35-b.]

Axborot kommunikativ texnologiyalari kasbiy-metodik tayyorgarlik jarayonida tadbiiq etish, talabalarda tasviriy san'at fanlaridan badiiy - estetik didni o'stirish, ko'nikma va malakalarini, badiiy bilimlarini shakllantiradi. (1-jadval)

1-jadval

№	Axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositalari:
1.	Kompyuter - universal axborotni qayta ishlash qurilmasi.
2.	Printer - bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi tomonidan yaratilgan ma'lumotlarni qog'ozga yozib olish imkonini beruvchi qurilma. Tasviriy san'at darslari uchun rangli printer zarur va maqbuldir.
3.	Proektor - mashg'ulot jarayonida bo'lajak o'qituvchining ko'rgazmali tasvirlarini auditoriyaga taqdim etish moslamasi.
4.	Interfaol doska - kompyuterga ulangan sensorli ekran, undan tasvirlar proektor yordamida oq doskaga uzatiladi. Interfaol doskalar uchun maxsus dasturiy ta'minot matnlar va ob'ektlar, audio va video materiallar, Internet resurslari bilan ishlash, ochiq hujjatlarning tepasida to'g'ridan-to'g'ri qo'lda yozilgan yozuvlar qilish va ma'lumotlarni saqlash imkonini beradi.
5.	Vizual va ovozli ma'lumotlarni yozib olish (kiritish) qurilmalari (skaner, kamera, videokamera) - o'quv jarayoniga atrofdagi axborot tasvirlarini bevosita kiritish imkonini beradi.
6.	Oliy ta'lim muassasi va auditoriya ichidagi tarmoqlar - mavjud ma'lumotlardan, texnik va vaqtinchalik resurslardan samaraliroq foydalanish imkonini beradi, global axborot tarmog'iga umumiy kirishni ta'minlaydi.

N.A. Borodina, S.V. Podgorskaya, O.S. Anisimovlar [52] o'zlarining tadqiqot ishlarida axborot kommunikativ texnologiyalari orqali ta'lim jarayonini to'liq nazorat qilish, undagi ma'lumotlarni yangilab borish imkoniyati tug'iladi. Axborot kommunikativ texnologiyalarining darslarda qo'llanilishi pedagogik texnologiyalar, tahliliy materiallar kabi ma'lumotlar to'planadi. Shuning bilan bir katorda, videokonferentsiya o'tkazish, har xil ko'rinishdagi taqdimotlarni namoyish etish, ilmiy tadqiqot ishlari xaqida ma'lumot berish, seminarlar va turli mashg'ulotlarning o'tkazishda uning ahamiyati kattadir.

Kompyuterdan foydalanish bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy tayyorgarligi hozirgi rivojlanish darajasi bilan bog'liq bo'lgan zarurat bo'lib, ularda bilish faoliyati faollashadi. Bunda bizga Windows dasturiy ta'minotida Paint, Adobe Photoshop, 3D max, Power Poit, Movie Maker, Photo Story grafik dasturlari qo'l keladi. Umumiy va o'quv maqsadlaridagi Microsoft Word, Microsoft Excel, Microsoft PowerPoint, Microsoft Publisher, MyTest, TestEdu, CorelDRAW, Windows Live kinostudiyasi kabi dasturlar pedagogik faoliyatda muvaffaqiyatli foydalanilishi mumkin [4; 14-16-b.]

Kasbiy-metodik tayyorlashda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ko'plab didaktik imkoniyatlari mavjud [5; 37-40-b.].

ta'lim oluvchilarning monitorlari va multimediya proektorlari ekranlariga me'yorida matnli yoki grafik axborotlarni etkaza olishi;

grafik redaktorlari yordamida tasvirlar yaratishi;

ta'lim oluvchilar bilan individual va differentsial ishlash imkonini beradi;

jahon rangtasvir durdonalarini raqamli to'plamlarini yaratishi;

bilimlarni nazorat qiladi (testlash);

multimediali namoyishlar (prezentatsiyalar) yaratadi.


o'quv jarayonini yanada zamonaviy va jozibadorligini oshiradi;

yirik jahon va vatanimizning virtual muzeylariga tashrif buyurishi;

tasvirlarni namoyish qilish orqali o'quv ma'lumotlarni idrokini oshirish;

darsni ko'rgazmalilik va dinamikasini oshiradi.

A.A.Abduqodirov [23] ning "SMART texnologiyasi va undan ta'limda foydalanish imkoniyatlari" nomli ilmiy tadqiqot ishida axborot texnologiyalarining uchta asosiy komponentlarini ko'rsatib bera olgan:



2-rasm. AKTning komponentlari.

Shu bilan birga, axborot texnologiyalari ikki turga bo'linadi:

- analog, ular ma'lumotni uzluksiz jismoniy miqdor shaklida aks ettirishga asoslangan, masalan, kuchlanish yoki elektr tokining kuchi;

- raqamli, ular ma'lumotni raqamlar shaklida (odatda ikkilik yozuvda) ifodalashning diskret usuliga asoslangan bo'lib, ularning qiymatlari ma'lumot mazmunini aks ettiradi.

Analog bilan taqqoslaganda, ma'lumotlarning raqamli namoyishi shovqinlardan, shu jumladan aloqa kanallari orqali uzatishda sezilarli darajada ko'proq himoya qiladi.

Ta'lim tizimidagi axborot texnologiyalarining pedagogik maqsadlari quyidagilardan iborat: bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-metodik tayyorlash, shu jumladan: ijodiy, konstruktiv va izlanuvchan fikrlashni rivojlantirish, muammoli vaziyatlarda favqulodda qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish;


kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish; tadqiqot ko'nikmalarini takomillashtirish [10; 67-69-b.]

Natijalar: tadqiqotlar natijasida biz AKTni kasbiy-metodik tayyorgarlik jarayoniga joriy etish maqsadlarini o'rgandik va aniqladik, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy metodik tayyorgarligida tegishli vositalardan foydalanish bo'yicha guruhlar ishlab chiqildi:


Learning management system - uchta eng mashhur LMS tizimlari (Blackboard, Moodle va Sakai) o'quv materiallari va kurslarning kontsentratsiyasini ta'minlaydi, shuningdek kurslarni boshqarish, ro'yxatdan o'tish, kurslarni rejalashtirish, munozarali forumlar, blog saytlari, baholashlarni qamrab oladi. LMS ning asosiy funktsiyalariga tanlangan kurslarni o'z ichiga oladi. Kursni ishlab chiquvchi materiallar yoki aksincha, erkin mavjud bo'lgan ochiq ta'lim resurslarini taqdim etishi mumkin. Materiallar turli formatlarda taqdim etiladi - oddiy matndan interaktiv multimediyagacha [11; 152-156-b.].

Ijtimoiy tarmoqlar – bo'lajak o'qituvchilarga AKT yordamida muloqot qilish imkoniyatini beradi. Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlar ijtimoiy o'zaro ta'sir vositasidir. Mamlakatimizda ta'lim sohasida ijtimoiy tarmoqlarning ahamiyati ortib bormoqda [10].

Bulutli texnologiyalar – bugungi kunga keliba ta'lim muassasalari AKTsiz samarali ishlay olmaydi. Internet orqali talabalar va o'qituvchilarga tobora ko'proq ta'lim xizmatlari ko'rsatilmoqda. Bulut texnologiyasi-bu foydalanuvchilarning internet serverlarida saqlanadigan axborotlaridan iborat virtual xotira bo'lib, jahonda yirik axborot texnologiyalari sohasida faoliyat yuritayotgan kompaniyalar tomonidan taklif etilayotgan xizmat turlaridan biri hisoblanadi.



3-rasm. Google xizmatlari



4-rasm. Nazorat turlari

Bulut texnologiyasini birinchilardan bo'lib tatbiq etgan Google ning classroom xizmati (<http://G'G'classroom.google.com>) foydalanuvchiga darslarni tashkil etish uchun elektron kundalik, jurnal, bilimni baholash kabi xizmatlarni taklif etadi [7; 162-169-b.]. Google foydalanuvchisiga shaxsiy kabinetida hujjatlar, rasmlar, bloggerlik, xarita, pochta, tarjima va ta'lim tizimi uchun sinfxona (classroom) kabi xizmatlarni taklif etadi (3-rasm).

Mustaqil ta'lim. Internet tizimidagi katta miqdordagi ochiq ma'lumotlar tufayli bhlajak tasviriy san'at ho'ituvchilarini kasbiy-metodik tayyorgarligidagi nazariy bilimlarni mustaqil ravishda o'zlashtirish mumkin. Bundan tashqari, buning uchun kutubxonalarga borish shart emas, faqat Internetga ulangan shaxsiy kompyuteringiz bo'lishi darkor [11; 152-156-b.].

Masofaviy ta'lim. Kasbiy-metodik tayyorgarlikda talaba va o'qituvchi fazoviy bir-biridan ajralgan holda o'zaro maxsus yaratilgan o'quv kurslari, nazorat shakllari, elektron aloqa va Internetning boshqa texnologiyalari yordamida doimiy muloqotda bo'ladilar. Internet texnologiyasini qo'llashga asoslangan masofaviy o'qitish jahon axborot ta'lim tarmog'iga kirish imkonini beradi, integratsiya va o'zaro aloqa tamoyiliga ega bo'lgan muhim bir turkum yangi funktsiyalarni bajaradi.

Mobil ta'lim - mobil telefonlar, smartfonlar, planshetlar yordamida ta'lim olish. Ta'limning o'ziga xos xususiyati shundaki, ish va o'qishni birlashtira olish, bir vaqtning o'zida bir nechta kurslarda va hatto bir nechta maktab yoki universitetlarda ta'lim jarayoni olib borilishi mumkin. Shu bilan birga, portativ qurilmalar – ular to'liq o'quv vositalaridir, chunki m-learning o'quv jarayonining moslashuvchanligiga asoslanadi. Ta'limga zamonaviy yondashuvlar telefonning moslashuvchan va uzluksiz ta'limda yordamchiga aylanishiga olib keldi [8].

Ommaviy ochiq onlayn kurslar (MOOC - massive open Online course) – doim ochiq va ommaviy xarakter xususiyatiga ega bo'lgan Internetda bepul o'quv kurslari. Ochiq kirish shuni anglatadiki, kurs bepul, ommaviy dunyodan ko'plab ishtirokchilar ommaviy ishtirok etadilar. MOOC internetda mahalliyashtirilgan

masofaviy ta'lim shaklidir. Bu kurslarga cheklanmagan miqdorda bo'lajak mutahassislar ro'yxatdan o'tishi mumkin. Tashkil etilgan kurslarda puxta o'ylangan dastur, oraliq vazifalar, testlar va yakuniy attestatsiya (sertifikatlash) xarakteriga ega. Kurslar odatda vaqt bilan cheklangan, ya'ni ular dedlainlar tizimidan foydalanadilar [106].

Yu. V. Maslova, A.P. Koxanenkolar [6] tadqiqot ishlarida bugungi kundagi ta'lim tizimida elektron shaklda tashkil etiladigan ta'lim jarayonining nazariy mashg'ulotlari odatda elektoron ta'limga tayanishini ko'rsatib berishgan. Elektoron ma'ruzalar matnli ma'ruza matnlarining salmoqli qismini egallab, o'quv dasturiga kiruvchi barcha materiallar PDF matnli shaklda yaratilgan, keyin esa qo'shimcha ravishda audio hamda video materiallar ishlab chiqilmoqda. O'quv materialining bu taxlitda taqdim etilishi an'anaviy ma'ruzalar ega bo'lgan kamchiliklar, xususan, zarur o'rinlarni ko'chirib olish, qayd qilish, ma'ruzachi tomonidan uni qayta-qayta takrorlashga ortiqcha vaqt sarflanishi kabilarning bartaraf etilishini ta'minlaydi.

Videodars lavhalar - darslik yoki o'quv dastur asosida talabalarga berilishi zarur bo'lgan ma'lumotlarini va amaliy topshiriqlarni bajarib ko'rsatuvchi video lavhalar ketma-ketligi. Ba'zi video dars lavhalar o'rgatuvchi tomonidan tildan amaliy darslarni video tasvirga olish orqali ham ishlab chiqiladi.

Video darslarni yaratuvchi va eng ko'p qo'llaniluvchi dasturiy ta'minot Camtasia studio dasturi. Bu dasturning qulayligi shundaki tasvirni kichik hajmda va yuqori tiniqlik darajasida saqlay oladi, olingan tasvirlarni o'quvchi e'tibor qara'tishi zarur bo'lgan qismlarini belgilab olish, qo'shimcha izohlar kiritish kabi imkoniyatlari mavjud (5-rasm).




5-rasm. Camtasia studio dasturida elektron ma'ruzalar tayyorlash.

Ma'ruza matnlari sirasiga kiradigan audio materiallar odatda ikki:

On-line rejimida (AKTdan foydalangan holda); Off-line rejimida (audiokassetalar, audiodisklar, fayllarga yozilga holda tarmoq texnologiyalari orqali) tarqatiladi. Video materiallar ham On-line va Off-line rejimlari orqali tarqatilishi mumkin. Bu turdagi materiallarning On-line rejimida to'g'ridan-to'g'ri uzatilishi uning an'anaviy ma'ruzadan deyarli farq qilmasligini ifodalaydi.

Off-line rejimida video materiallar tarkibiga ma'ruza, mavzuga taalluqli ilmiy-ommabop videomateriallar, sohaning etakchi mutaxassislari bilan uchrashuvni yoritadigan videolavhalar kiritiladi. Bunday video materiallardan ixtiyoriy ravishda, istalgan joyda, vaqtda hamda takroran foydalanish imkoniyati mavjud.

Animatsion ma'ruzalar talabalarga interfaol xarakterga ega o'rgatuvchi kompyuter dasturlari orqali etkaziladi. Animatsion ma'ruzalar multimedia texnologiyasidan foydalangan holda shakllantiriladi. Unda har bir ta'lim oluvchi o'zining psixologik-fiziologik xususiyatidan kelib chiqqan holda mazkur turdagi ma'ruzada o'z traektoriyasi, o'zlashtirish sur'ati, o'rganish usulini tanlaydi.



6-rasm. BANDICAM dasturining interfeysi.

BANDICAM- dasturi o'zining interfeysi, ko'plab formatlari, video fayllarga turli xil belgilar va izohlar qo'yilishi, darslarga menyular hosil qilinishi bilan ajralib turadi, shuningdek, bu dastur yordamida audio fayllarni ham yaratish mumkin. Dars yozish davomida ekranning kerakli joyini alohida ajratib ko'rsatish imkoni ham mavjud.

BANDICAM dasturi - kompyuter monitori ekranidagi tasvirlarni yozib olish imkonini beruvchi juda ham qulay kuchli dastur hisoblanadi. Ushbu dastur yordamida ekrandagi jarayonlarni tasvirga olish, veb-kameralar orqali videoga olish, Power Point taqdimotlarini, hamda audioni yozib olish mumkin (6-rasm).

Dasturning asosiy imkoniyatlari quyidagilardan iborat:

1. Monitor ekranidagi va web kameralar orqali video tasvirlarni, mikrofondagi ovozni sifatli yozib olish.
2. Video lavhalarga turli xil vizual effektlar berish.
3. Video yo'laklarni kesib olish, birlashtirish, o'chirish va qo'shish.
4. Audio yozuvlar qo'yish va tahrirlash.
5. Videoni quyidagi formatlarda saqlash: SWF, FLV, AVI, MOV, WMV, PPT, GIF, RM, CAMV.

Umuman, BandiKam dasturi boshqa dasturlardan video tasvirni sifatli ushlab olish imkoniyatiga ega.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligini kompyuter grafikasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Uning o'rganish predmeti sifatida kompyuterga grafik ob'ektlarni kiritish, taqdim etish, qayta ishlash va olingan grafik ma'lumotlarni kompyuterdan displey qurilmalariga chiqarishni avtomatlashtirish vosita va metodlarini e'tirof etish joiz [3; 22-27-b.].

Bo'lajak o'qituvchini kasbiy-metodik tayyorgarligida Microsoft Power Point elektron taqdimotlari katta yordam beradi [23]. Taqdimot bir vaqtning o'zida bir nechta xotira turlariga ta'sir qilish imkonini beradi: ko'rish, emotsional. Estetik jihatdan yaratilgan turli xil tasviriy materiallar, chizmalar, kompozitsiyalar, topshiriqlar, testlar, krossvordlar - darsga bo'lgan qiziqishni oshiradi (7-rasm). [8; 20-21-b.].

Multimediali prezentatsiyalarni yangi mavzularni o'rganishning turli xil bosqichlarida, kompyuter yoki proektsion ekran yordamida yangi materialni tushuntirishda, mustahkamlashda, umumlashtirishda, nazorat o'tkazishda, auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda, to'garak ishlarida foydalaniladi. Shu bilan birga, tasviriy san'atdan lektsiya, viktorinalar, bellashuvlar, kechalar, mustaqil ishlar, testlash, so'rovnomalar, rassomlarning hayoti va ijodi bilan tanishtirish, yoki san'atshunoslik asoslari mashg'ulotlarida foydalanish uchun imkoniyatlari keng [23].



7-rasm. Tasviriy san'atdan krossvord.




8-rasm. Darslarda prezentatsiyadan foydalanish.

Tasviriy san'at fanini o'qitish metodikasi fanidan bo'lajak o'qituvchilar amaliy mashg'ulotlarda Microsoft Power Point dasturidan turli xil mavzularni, masalan; 2-sinflar uchun "Rang va tuslar", "Oltin kuz", "Kish ziynati", "O'zbekiston xalk amaliy bezak san'ati", 5-sinflar uchun "Tasviriy san'at ifoda vositalari xakida" (Reproduksiyalarni tahlil etish asosida), "Tasviriy san'atda animalistik janr", Tasviriy portret", 7-sinflar uchun "O'zbekiston amaliy bezak san'ati", "O'zbekiston me'moriy yodgorliklari" mavzulariga prezentatsiyalarni yaratish mumkin (8-rasm).


Shu bilan birga bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisini kasbiy-metodik tayyorgarligida, ayniqsa axborot kommunikativ texnologiyalarni o'rganishda pedagogik amaliyot alohida o'rin tutadi. Pedagogik amaliyot - bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarni tayyorlashda o'quv-pedagogik jarayonining asosiy qismi hisoblanadi. Pedagogik amaliyot - bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-metodik tayyorlash, olgan bilimlarini amaliyotda sinab ko'rish, pedagogik faoliyat mas'uliyatini his etish va o'z ustida ishlash ko'nikmasini shakllantiradi, shuningdek, tajribali o'qituvchilarning ish faoliyatini o'rganishdan iboratdir.

Bo'lajak o'qituvchilar pedagogik amaliyot davrida yuqorida keltirilgan dars mavzulari bo'yicha prezentatsiyalarni murakabligini o'quvchilarning qobiliyat va layoqatlariga qarab, har bir sinfga moslab ham yaratish mumkin.

Masalan, 6-sinfda "Tasviriy san'atda janrlar" mavzusini o'rganishda yangi materialni tushuntirishda ekranda ta'rif va tasnifni ko'rsatish hamda tushuntirishni illyustrativ material bilan birga olib borish maqsadga muvofiqdir. Ushbu formatda nazariy materialning asosiy konspekti bo'lgan bunday taqdimotni ko'rsatish avtomatik dasturlashtirilgan rejimda emas, balki sichqonchani bosish orqali bir slayddan, ikkinchisiga o'tish orqali amalga oshiriladi. O'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qarab, ma'lum bir slaydani namoyish etish vaqti turlicha bo'lishi mumkin. (9-10-rasmlar)



9-rasm. Ranglarni aniqlash (Microsoft Power Point dasturida)



10-rasm. Bo'lajak o'qituvchi uchun metodik qo'llanma.

7-sinfda "Kitob grafikasi" mavzusini o'rganayotganda nazariy va illyustrativ materialni to'liq idrok etish uchun darsda turli ish shakllaridan foydalanishni kompyuter taqdimoti amalga oshirishga yordam berishi maqsadga muvofiq. O'quvchilarning bilim olishida kognitivlikni oshiruvchi motivatsiya bosqichini mashg'ulot muvaffaqiyatining zaruriy shartidir.

Bundan tashqari maktab tasviriy san'at darslarda mavzu yuzasidan o'rganilayotgan materiallardan masallar, rivoyatlar, maqollar, topishmoqlarni ham taqdimot formatida tayyorlash mumkin. Taqdimotlarni tayyorlashda ko'p vaqt talab qilmaydi, balki ular ma'lum mavzuni o'rganish mazmunini tushunishga yordam beradi. (103-104-rasm)

Yangi materialni tushuntirish bosqichida yangi so'z, lug'at, atamalar va ta'riflar bilan ishlashda

taqdimotlarning ahamiyati katta. Dars davomida oʻrta oʻzlashtiruvchi oʻquvchilar har doim ham murakkab, tasviriy sanʼatga oid atamalarni bir martada idrok etishga qiynaladi. Ekranida taʼriflar, tushunchalar, chizmalar, fotosuratlar namoyish etilishi, bu muammoni hal qila oladi. Bu metod “Eshitdim Q oʻqidim Q koʻrdim q eslab qoldim” formulasi boʻyicha qurilgan [23]. Bunda oʻquvchining eshitish va vizual analizatorlari ham ishtirok etadi.

Tasviriy sanʼat fanini oʻqitish metodikasi kursining amaliy mashgʻulotdan naʼmunaviy darslarni tashkil etishda axborot kommunikativ texnologiyasidan unumli foydalaniladi [181]. Masalan, 5 - 6 - sinf tasviriy sanʼat darslarining mustahkamlash qismida - sinf oʻquvchilariga toʻgʻri javoblar qabul qilinganda toʻldiriladigan krossvordni echishni taklif qilish mumkin.




11-rasm. Veb-saytda logotip yaratish musobaqasi.



12-rasm. Ranglarning inson hayotidagi oʻrni.

7-sinfda “Tasvirning tarixiy janri” mavzusini oʻrganayotganda oʻquvchilarni Kamoliddin Behzod “Masjidning qurilishi”, “Impressionizm uslubida manzara ishlash”, “Kubizm uslubida natyurmort ishlash” mavzularning mazmunini ochishga kompyuter taqdimoti va katta ekrandagi slayd-shou namoyish etiladi. Oʻquvchilar kartinaning tasvirini katta formatda koʻrishadi, ishning barcha tafsilotlari bilan tanishib chiqishlari mumkin. Taqdimotda har bir parcha batafsil tushuntirish bilan birga keladi. O.Renuarning “J.Samari portreti” kartinasi bilan tanishib, ettinchi sinf oʻquvchilari oʻsha davrning insonlari tasvirini tushunadilar, buyuk ustaning ijodi va isteʼdodini qadrlashadi.



13-rasm. Tasviriy sanʼat festivali sayti.

Boʻlajak tasviriy sanʼat oʻqituvchilari AKT yordamida bugungi kunda bilimlarni nazorat qilishning nostandart shakllaridan foydalanish mumkin boʻladi. Kompyuterdan foydalanib iSpring Suite dasturi orqali sinov testlarini yaratish mumkin [10]. Boʻlajak oʻqituvchining oʻzi yaratishi mumkin boʻlgan test yordamida

bilimlarni nazorat qilish imkonini beradi. Nazorat shakli sifatida testdan foydalanish bo'lajak o'qituvchining vaqtini tejaydi va o'quvchilarga o'z bilimi va imkoniyatlarini mustaqil baholash imkonini beradi. Yuqori sinf o'quvchilarning katta guruhini bir vaqtning o'zida qamrab olish uchun test sinovlarini kompyuter sinfida o'tkazish afzaldir. Istisno sifatida tasviriy san'at xonasida bitta kompyuterda o'quvchilarni birma - bir sinovdan o'tkazish mumkin. Test-sinov chorak oxirida, ko'p miqdordagi o'rganilgan materiallar asosida tayyorlanadi. Shu bilan birga test o'quvchilarning bilimini nazorat qilish, tekshirish va ularni bilim darajasini tezda tashxislash imkonini beradi. Testlar matnli yoki tasvirli shaklda bo'lib, berilgan savoldagi bir necha javoblardan bitta to'g'risini tanlab olinadi.

Integratsiyalashgan darslarni o'tkazishda "Tasviriy san'at - axborot texnologiyalari" kompyuter ko'nikmalarini egallash va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarni "Grafik muharriri" (Paint) maxsus dasturi tomonidan taqdim etiladi [11]. Ushbu dasturning interfeysi barcha o'quvchilar



14-rasm. 7-sinfda "Kitobat san'ati" mazusiga interaktiv doskadan foydalanish.

U chizmalarni chizish va loyihalash, olingan tasvirlarni diskda saqlash imkonini beradi. Masalan, "Shakl tushunchasi. Atrofdagi dunyo shakllarining xilma-xilligi" oltinchi sinf o'quvchilariga kompyuter ekranida geometrik jismlar tasvirini bajarish, geometrik shakllar nisbati sifatida ikki yoki uchta ko'za tasvirini yaratish taklif etiladi.

Grafik muharriri qalam, mo'yqalam, marker tanlash, ularning qalingligi, rangini o'zgartirishi hamda palitra tanlash, fon rangini o'zgartirish va boshqa funksiyalarni o'z ichiga oladi. Xuddi shunday, bolalar darsda chiziq va rang bilan "Natyurmort", "Akvarium", "Shahar ko'chasi", "Tog' manzarasi" mavzulari bo'yicha topshiriqlarni bajarishi mumkin. Dastur ettinchi sinf o'quvchilariga kompyuter grafikasidan foydalangan holda 1991 yil "Mustaqillik kuni" mavzusida plakat yoki otkritka yaratishni taklif qilish mumkin [12].



15-rasm. Colorfy ilovasi yordamida yaratilgan tasvirlarga misollar

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilari AKTlari darsni ertak yoki qiziqarli sayohatga aylantirish, muzey va ko'rgazmalarga virtual tashrif buyurish, ekskursiya o'tkazish imkonini beradi, masalan Google Arts&Culture saitida buni ko'rishimiz mumkin. [9]. Platformada yuqori aniqlikdagi san'at asarlarining 200 000 dan ortiq raqamli nusxalari, muzey kolleksiyalaridan 7 000 000 dan oshiq artefakt, ko'rgazma zallarining 1800 dan

ortiq panoramali tasvirlari va mutaxassislar tomonidan boshqariladigan kamida 3000 ta onlayn ko'rgazmalar mavjud. Bularning barchasi rasmiy veb-sayt: artsandculture.google.com. da joylashtirilgan. O'quv filmlari sizga rassomning studiyasini ko'rish, Tretyakov galereyasi, Ermitaj, Luvr, O'zbekiston tasviriy san'at muzeyi, Temuriylar muzeyiga tashrif buyurish va san'at sohasida yangi bilimlarga ega bo'lish, umumiy dunyoqarashingizni kengaytirish imkonini beradi.

Torrent treklarida bo'lajak o'qituvchilar rassomlar haqidagi filmlarni topishi va darslarda foydalanishlari mumkin, masalan, "O'zbek rassomlari", "Malik Nabiev", "Samarqand", "Impressionist rassomlar", "Van Gog" va boshqa filmlarni Internetga ulangan holda katta ekranda butun sinf jamoasi bilan ko'rish mumkin. Bunda albatta bo'lajak o'qituvchi tomonidan har bir film izohlanib tushuntirilib boriladi.

AKTdan foydalanish bilan birga tasviriy san'at dars va darsdan tashqari vaqtlarida o'quvchilarning turli xil gadjetlarga qiziqishiga ham alohida e'tibor berish kerak. Hech kimga sir emaski, o'quvchilarimizning deyarli barchasida smartfon, planshetlar bor, o'quvchilar ulardan deyarli bo'sh vaqtlarida unumli foydalanishadi. O'quvchilarni bo'sh vaqtlarida android platformasi uchun tasviriy san'at bilan bevosita bog'liq bo'lgan qiziqarli ilovalarni yuklab olish mumkin. Shunday ilovalardan biri - Colorfy ilovasi. Ilovan Pley Marketdan to'g'ridan to'g'ri yuklanadi [12; 246-b.].

Shunday qilib, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy-metodik tayyorlashda mutaxassislik fanlarni o'qitish doirasida axbarot kommunikativ texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha kengaytirilgan imkoniyatlarni taqdim etadi va umuman o'quv jarayoni sifatiga, talabalar tomonidan olingan bilim, ko'nikma va malakalarning sifatiga, mehnat bozorida bo'lajak mutaxassislarning raqobatbardoshligi va talabiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini. Lex.uz. 2020.

Alimov R.X., Azamatov O.X., Xayitmatov U.T. "Informatsionno'e texnologii v obrazovanii" - Ministerstvo vo'sshego i srednego spetsialnogo obrazovaniya respubliki Uzbekistan. - T.: Iqtisodiyot, 2019. - 158 str.

Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish, boshqarish nazariyasi va amaliyoti: Dis. ... ped. fan. dok. - T., 2007. - 198 b.

Грицай А. А. Роль информационных технологий в современном образовании // Материалы 5-й международной научной конференции «PROBLEMS OF MODERN EDUCATION», Прага, 2014. - С. 14-16.

Герасимова А.Г. Основные направления подготовки будущих учителей изобразительного искусства в области информационных и коммуникационных технологий // Ж. Вестник ЧГПУ им. И. Я. Яковлева. 2012. № 3 (75) -37-40 с.

Климов Е.А. Психология профессионального самоопределения: учеб. пособие для студ.высш. учеб. заведений / Е.А.Климов. -4-е изд., стер. -М.: Академия. 2010.- 304 с.

Жабборова Д.Ф. Бўлажак ўқитувчиларни касбий тайёрлашда "касбий фаолият портфолиоси" технологиясидан фойдаланиш // Education and innovative research. №6.2. 2022. -Б. -162-169.

Хайров Р.З. Совершенствование подготовки будущих педагогов изобразительного искусства к обучению живописи на основе индивидуального подхода // Вестник ГулГУ ОАК. -Гулистан. -№3 (95) -2022. -С. 20-24.

Хайров Р.З. Педагогические условия информационно-коммуникационных технологий в совершенствовании профессионально-методической подготовки будущих учителей. International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers. Vol. 11 No. 4 (2023): p. 870-879.

Khayrov R.Z., Tojiboyeva D.B. Pedagogical conditions of information and communication technologies in improving professional and methodological training of future teachers. GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915 Vol. 11, Issue 05, May (2023)

Хайров Р.З., Азамкулов Г.О., Умиров Б.Т. Мультимедийное обучение в совершенствовании профессионально-методической подготовки будущих учителей. Символ науки. Международный научный журнал. Российская федерация. г.Уфа. №5-1/2023. - 152-156 с.

Хайров R.Z. Tasviriy san'at fanini o'qitish metodikasi. Darslik. -T.: Ilm Ziyov Zakovat. 2023. -283 bet.